



ZAMONAVIY LIBOSLARDA MILLIY NAQSHLARNING MOHIYATI

Z.Sh.To'xtayeva¹, G.A.Rajabboyeva²

¹ p.f.d., dotsent, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

² 1-kurs magistranti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590343>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 28- may 2022

KALIT SO'ZLAR

libos, amaliy san'at, milliy
meroslar, milliy an'anaviy
liboslar, zamonaviy,
naqshlar, kiyim-kechak,
tasviriy san'at.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek xalqining amaliy san'atining katta tarixiy meroslari, libosni yaratish jarayonida, ularni badiiy bezashda milliy liboslarimizdan va xalq amaliy san'ati elementlaridan ham foydalanish, zamonaviy liboslarda milliy ornamentlar, naqshlarning mazmuni haqida fikr yuritiladi.

So'nggi yillarda respublikada amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlarning bosh maqsadi – barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashdan iborat etib belgilangan bir sharoitda talabalarning kasbiy mahoratini shakllantirishda talabalarni milliy meroslarimiz bilan qurollantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Zero, komil inson qiyofasida nafaqat shaxsiy sifatlar, shu bilan birga kasbiy sifatlar ham aks etishi zarur.

O'zbek xalqining amaliy san'ati katta tarixiy rivojlanish yo'lini boshidan kechirdi. Uning ta'rifi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan sabablarga ko'ra aniqlanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanishi, siyosiy voqealar, mamlakatdagi shaharlarning o'sishi – bularning barchasi dizayn sohasida, qolaversa, tasviriy san'at sohasida libos dizaynining shakllanishiga, bu sohada ta'lim yo'nalishlarining yo'lga qo'yilishiga, o'qitish dasturlari ishlab chiqilishiga turtki bo'ldi.

O'zbek xalqining kiyim-kechagi juda rang-barang va jozibalidir. Hamma davrlarda ham libosga qarab uning qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligini bilish mumkin. Turli regionlarga qarab ham milliy an'anaviy liboslar turli ko'rinishlarni kasb etadi. O'zbekistonda yashayotgan xalqlarning milliy liboslari Sharqning barcha xalqlari uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni va boshqa mamlakatlarning kiyim-kechaklarida topilmagan noyob xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Vaqt o'tishi bilan, milliy liboslar keskin o'zgarganligini, ammo hattoki eng zamonaviy variantlari ham Sharqning eng qadimiy an'analarini va tarixiy aloqani muvaffaqiyatli saqlab qoladi, uning ildizlari eng qadim zamonlarga qaytadi. Yangi libosni yaratish jarayonida, ularni badiiy bezashda milliy liboslarimizdan va xalq amaliy san'ati elementlaridan ham foydalanish katta ahamiyatga ega. Bu masalaga talabalarning individual



xususiyatlari hisobga olingan holda yondashilsa, yaxshi natijalarga erishilishi amaliyotda isbotlangan [1].

Jamiyatni rivojlantirishning ilmiy faktori – ilm va bilimdir. Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tomondan rivojlanishi uning intellektual salohiyatiga bog'liqligi ma'lum. Yoshlarga yuqori bilim berish alohida ahamiyat kasb etadi va davlatning kelajagi borasidagi g'amxo'rlik hisoblanadi. Yosh avlod hayotiy maqsadni aniq bilishi va u sari intilishi azaliy muammo bo'lib, bugungi kunda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, aynan yoshlar hayotiy maqsadini to'g'ri yo'naltira olishi va unga erishishi uchun o'z faoliyatini aniq bajarsagina, kelajakka qo'yilgan poydevor mustahkam bo'ladi.

O'zbekona milliy yo'nalishlar ko'pgina modelerlar ishlarida turfa ko'rinishda aks ettirilmoqda. S.Amir, S.Murodxo'jayeva, A.Manshayev, D.Qosimova, N.Arapova, T.Chursina, N.Sherxo'jayeva, Z.Sultonova, D.Tomilin kabi modelerlar zamonaviy liboslarni yaratishda milliy matolardan foydalangan holda kolleksiyalarini yaratib, xalqona milliylikning yangi qirralarini kashf etish, yangicha dizayn usullarni topish ustida ish olib borishmoqda. Ular yaratgan liboslarda xalq dekorativ kashtachiligi, rang-barang milliy kolorit va boy ornament motivlaridan unumli foydalanib, qadimiy naqshlar simbolikasidan ruhlangan holda milliy dizayn maktabi yaratilmoqda [3].

Ayniqsa, milliy liboslarimizda xalqimizning ming asrlik o'tmishi, qadimiy urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari, shuningdek, o'ziga xos xususiyatlari mujassam. Milliy liboslarimizda qizlarimizga mos ibo va hayo aks etgan. Hirot, Buxoro, Samarqand, Sherov va Tabriz maktablari an'analarini ijodiy o'zlashtirgan boburiylar davri san'atkorlari Hindistonga

xos bo'lgan qahramonlarni yaratgan. "Boburnoma" miniatyuralarida tasvirlangan qahramonlarning yuz tuzilishidan tortib, libos, hatto sallasi hindchadir. Ular temuriy va safaviylar miniatyuralari qahramonlaridan butkul farq qiladi [2].

Buxoro Naqshi eng murakkab, mukammal va jozibador bo'lib, ko'p asrlik ijodiy mehnat an'analari samarasidir. Naqsh bezak bo'lish bilan birga binokorlikning ajralmas qismiga aylangan. Juda murakkab guruhlar puxta bilan ishlangan, gul naqshlari o'ziga xosligi bilan (gul naqshda vaza, kosa, guldona uslublasihtirilib, ularda gulbutalari aks ettirilgan, yaproq, mevalar tasvirlari bir maromda berilishiga alohida e'tibori bilan) ajralib turadi. Xiva naqshi (yulduzlar hosil qiluvchi guruhlar orasida o'simliksimon gullarni mahorat bilan joylashtirilishi, barg shaklidagi bezaklarning ko'pligi, o'simliksimon tasvirlar zich, ko'p va turli-tumanligi bilan mashhur.

Farg'ona naqshi Marg'ilon, Xo'jand, Qo'qon, Fargona, Namangan va boshqalar shaharlarda vujudga kelgan uslublardan iborat. Me'moriy yodgorliklar (Qo'qondagi Modarixon daxmasi va Daxmai shohon), XIX asrda yaratilgan naqshlarda sodda rang-baranglik (sariq, qizil, yashil, qora, oq, ko'k, pushtirang) naqsh qismlarining ancha jo'nligi ko'zga tashlanadi.

Farg'ona naqshining o'ziga xos jihatlari: bino devorlariga mehrobi namoyonlar ishlanib, ular hoshiya naqsh bilan bir-biridan ajratiladi, hoshiyalar orasiga guruh, qolgan qismlarga o'simliksimon gullar ishlanadi. Ularda Buxoro, Xiva naqshlarining ta'siri seziladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi naqshlarda Yevropa naqshlarining ham ta'siri bor.

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida yaratilgan ro'zg'or buyumlari,



asbob va qurollar, uy va inshootlarni naqsh (bezak)siz tasavvur qilish qiyin. O'rta Osiyoda ishlangan bezakli buyumlar, matolar xalqaro bozorlarda ham qadrlangan. Turli o'lkalar bilan madaniy-iqtisodiy aloqalar naqshning rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Demak, milliy madaniy merosimiz hamda tasviriy san'atning elementlari va milliy ornamentlarni zamonaviy liboslarda uyg'unlashtirish, yangi libos yaratishda milliy madaniy merosimizdan foydalanish, bu orqali talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusxodjayeva S.A. Подготовка студентов обучающихся в области профессионального образования как профессионалов, обладающих глубокопрофессиональными знаниями и преимуществами развития знаний нашей национальной одежды. Madaniyat chorrahalari. – № 4. Toshkent, 2020. – 68-72 b.
2. Raximova Z.K. Истории костюма народов Узбекистана. Костюм Бухары и Самарканда XVI-XVII веков (по данным средневековой миниатюрной живописи). – Tashkent, "San'at", 2005. – С. 5.
3. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-n/naqsh-uz/>
4. Убайдова, В. Э. ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ОДЕЖДЫ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ. Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 33 (том 1)(февраль, 2022). Дата выхода в свет: 28.02. 2022., 40.
5. Убайдова Вазира Эркиновна ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ УЗОРОВ // Universum: общественные науки. 2022. №1 (80). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-znacheniya-natsionalnyh-uzorov> (дата обращения: 27.05.2022).
6. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.
7. Тухтаева, З. Ш. (2012). Методика межпредметной преемственности в профессиональном образовании.
8. Тухтаева, З. Ш. (2011). Межпредметные связи и преемственность в профессиональном образовании. Профессиональное образование. Столица, (9), 43-44.
9. Тухтаева, З. Ш., & Искандарова, Г. Б. (2014). Обеспечение межпредметной преемственности при обучении специальным предметам. Молодой ученый, (8), 882-884.
10. Sharifovna, T. Z., Khamidovna, S. K., Bakhtiyorovna, T. B., & Fakhritdinovna, M. S. (2020). Improving Higher Education Through Integrated Learning, Features Of An Integrated Lesson. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.
11. Туракулова, Б. Б. (2016). Создание и внедрение в практику объектно-ориентированных систем автоматизированного проектирования швейных изделий. Молодой ученый, (11), 505-507.



12. Туракулова, Б. Б. (2016). Зависимость вида переплетения нитей в челночном стежке от конструкции челночного устройства. Молодой ученый, (7), 186-189.
13. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. MODERNIZATION OF HIGHER EDUCATION BY SOLVING INTEGRATION PROBLEMS.